



UDK:94(575.1)

Nafisa VALIYEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: nafisavaliyeva6@gmail.com

NamDU professori, t.f.d A.Rasulov taqrizi asosida

PUBLIC SECURITY COMMITTEE IN THE SYSTEM OF THE TURKESTAN GOVERNMENT AND ITS SEPARATELY CONTROVERSIAL ACTIVITIES

Annotation

The article examines the influence of the February Revolution on the socio-political situation in the country, which led to the activation of national movements on the outskirts of the empire, the overthrow of the tsarist regime in Russia, the creation of the Provisional Government, the ongoing war, the situation with land and food, as well as the need to pay attention to the issue of “democratic reforms in the country, especially in the system of public administration” and the future fate of the peoples.

Key words: Local government bodies, February Revolution, Provisional Government, old system of government, elections to the Duma, public committees, Committee of Public Safety.

КОМИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В СИСТЕМЕ ТУРКЕСТАНСКОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА И ЕГО ОТДЕЛЬНО ПРОТИВОРЕЧИВАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация

В статье рассматривается влияние Февральской революции на общественно-политическую обстановку в стране, приведшее к активизации национальных движений на окраинах империи, свержению царского режима в России, созданию Временного правительства, продолжающейся войне, ситуации с землей и продовольствием, а также необходимость уделить внимание вопросу «демократических преобразований в стране, особенно в системе государственного управления» и дальнейшей судьбе народов.

Ключевые слова: Органы местного самоуправления, Февральская революция, Временное правительство, старая система управления, выборы в Думу, общественные комитеты, Комитет общественной безопасности.

TURKISTON BOSHQARUV TIZIMIDA JAMOAT XAVFSIZLIGI QO'MITASI VA UNING O'ZIGA XOS ZIDDIYATLI FAOLIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Rossiyadagi Fevral inqilobi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazib, bu holat imperiya tasarrufida bo'lgan chekka o'lkalarda milliy harakatlarni faollashuvi, Rossiyada podsho hokimiyatining ag'darilganligi, Muvaqqat hukumat tuzilgani, ularda davom etayotgan urush, yer, oziq-ovqat bo'yicha ahvol masalalari qatori, “mamlakatla demokratik o'zgarishlar, ayniqsa bu davlat boshqaruvi” masalasiga, millatlarning kelgusidagi taqdiriga e'tibor qaratish zarurligi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari, Fevral inqilobi, Muvaqqat hukumat, eski boshqaruv tizimi, dumaga saylovlar, jamoat qo'mitalari, jamoat xavfsizlik qo'mitasi.

Kirish. 1917 yil 27 fevralda g'alaba qozongan Rossiyadagi Fevral inqilobi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazib, bu holat imperiya tasarrufida bo'lgan chekka o'lkalarda milliy harakatlarni faollashuviga olib keldi.

1917 yil mart oyi boshlaridan Rossiyada podsho hokimiyatining ag'darilganligi, Muvaqqat hukumat tuzilgani bilan qutlab Turkistondan Petrogradga telegrammalar yuborila boshlagan. Mazkur telegrammalarda, o'lkaning taqdiriga befarq bo'lmagan aholi vakillarida muvaqqat hukumatni qo'llab-quvvatlashlarini bildirib, ularda davom etayotgan urush, yer, oziq-ovqat bo'yicha ahvol masalalari qatori, “mamlakatla demokratik o'zgarishlar, ayniqsa bu davlat boshqaruvi” masalasiga, millatlarning kelgusidagi taqdiriga e'tibor qaratish zarur deb qayd etildi. Telegrammalarda “mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlaridagi saylovi organlari”ga e'tibor qaratildi [Usmanova D. Fevral 17-go v telegramma ot musul'man'skogo naseleniya//Gasyr'lar avazy-Exo vekov, №1/2 1997. -S. 165-167.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muvaqqat hukumatni qo'llab-quvvatlash yuzasidan 1917 yil 5 aprelida Turkiston shahrida bo'lib o'tgan, ko'pchilikdan iborat, majlisida vujudga kelgan shart-sharoitda yangi hukumat barcha

musulmonlar ishonchini oqlaydi deyish bilan birga, “umid qilamizki, eski hukumat tomonidan Turkiston o'lkasi, qirg'iz dasthlari va Kavkazdagi musulmonlarga nisbatan qilingan adolatsizliklar, cheklovlar” bekor qilinadi [Usmanova D. Fevral 17-go v telegramma ot musul'man'skogo naseleniya//Gasyr'lar avazy-Exo vekov, №1/2 1997. -S. 170.].

Ammo bu umidlar, aslida davom etayotgan yangi, inqilobiy harakatlar oldida, “eski boshqaruv tizimi hamon davom etgani” bilan ko'zga tashlanadi. Xususan, Turkistonda inqilobning dastlabki kunlarida general-gubernator, viloyat harbiy gubernatorlari, uezd boshliqlari joylarda o'z boshqaruvlarini davom ettirdi. Muvaqqat hukumatning harbiy vaziri Guchkov tomonidan 1917 yil 8 martida A. N. Kuropatkinga yuborgan telegrammasida “Sizning o'lkani chuqur bilishingiz, xizmatigizga yarasha bo'lgan obro'yingiz... lozim bo'lgan hollarda sizning tajribaga asoslangan aql va zakovatingiz sizga yo'l ko'rsatib berar” deb, uni Turkistonni boshqarishda davom etishiga umid bildiradi. Rossiya imperatorining sadoqatli general-gubernatori A. N. Kuropatkin yangi Muvaqqat hukumatning komissari etib tayinlandi.

Endilikda A. N. Kuropatkin o'lkada boshqaruv tizimida yangi lavozimda faoliyat boshlab, 1917 yil 8 martda bergan buyrug'ida barcha viloyat harbiy gubernatorlari, uezd boshliqlari, harbiy xalq boshqarmasining hamma xodimlari o'z egallab turgan mansablarida qolib, faoliyatlarini davom ettiraversinlar dedi. Boshqaruv tizimida yana A. N. Kuropatkin qolganidan Toshkent shahar dumasi o'z xursandchiligini bildirib, дума raisi Muvaqqat hukumatning bu qarorini qo'llab-quvvatlayman deb, egallab turgan boshqaruv tizimidagi lavozimida sadoqat bilan xizmatda bo'lishini bildirdi [Вахобов М. Ташкент уч революция даврида. Ташкент: Ўзбекистон ССР Давлат Нашриёти, 1958. -Б. 159.].

Tadqiqot metodologiyasi. Turkistondagi boshqaruv tizimida ziddiyatli faoliyatiga ega bo'lgan ijroiya qo'mita va jamoat xavfsizligi qo'mitalarining saylovi va ularning dastlabki faoliyati bilan bog'liq muammo va ziddiyatlar boshqa shaharlarda ham u yoki bu tomonlama ko'zga tashlangan. O'z-o'zidan inqilobdan keyin o'lkada boshqaruv tizimida vujudga kelgan bunday holat siyosiy jihatdan faollashgan milliy ziyolilarni qanoatlantirmas edi. Chunki o'lkada boshqaruv tizimi va viloyat, uezd-shahar, volost, posyolkalarda "o'z o'rnini egallash" sa'y-harakatida bo'lgan ijroiya qo'mitalari, jamoat xavfsizligi qo'mitalariga saylovlarda mahalliy millat vakillariga "nomigagina joy ajratilgani", ularni bunday holatlardan noroziligi A. N. Kuropatkin boshqarayotgan mahkamaga, Rossiya Ministrlar Soveti raisiga, Tashqi ishlar ministriga, Rossiya Davlat dumasi tarkibidagi Musulmonlar fraksiyasi vakillariga ham yuborildi. Masalan, ijroiya qo'mitasiga bo'lgan saylovlar natijasi bo'yicha Rossiyaning Buxorodagi siyosiy rezidenti A. Ya. Miller tomonidan A. N. Kuropatkin yuborilgan telegrammada: "... Saylovlar juda notinch o'tdi. Endilikda ijroiya komitet va saylovlarda toptalgan huquqlarini tiklashga harakat qilayotgan musulmonlarning keskin noroziligi sezilib qoldi. Musulmonlarni tinchlantirish uchun Muvaqqat hukumatdan tezlik bilan yangi muqobil saylovlar o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar olish yoki hech bo'lmaganda, aholining boshqa guruhlariga zarar keltirib bo'lsa-da, o'zlariga 20 o'rinni olgan ishchilar sinfi hisobidan musulmonlarga uchta o'rin ajratish zarur..." deb qayd etilgan [Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Ташкент: "O'zbekiston", 2019. -Б.25.].

Boshqaruv tizimida boshlangan bunday boshboshdoqlikka qo'yilgan dastlabki holatlardan xavotirga tushgan A. N. Kuropatkin tomonidan A. Ya. Millerga va o'lkadagi gubernatorlariga yuborilgan javob telegrammasida yangi tartib joriy etilayotgan bir paytda joylarda o'z faoliyatini olib borishga kirishgan "jamoat tashkilotlariga, Sovetlarga, saylov organlariga to'la ishonch bildirishni, chunki busiz "yangi tuzum"ga o'tish mumkin emasligini, shuningdek, mahalliy aholi vakillarining murojaaatlariga ehtiyotkorlik bilan yondashishni..." so'ragan [Абдуллаев Р. Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Ташкент: "Adabiyot uchqunlari", 2016. -С. 78.].

Ammo shunisi borki, "inqilob ne'matlaridan" shoshma-shosharlik bilan va mahalliy shart-sharoitni, yerli aholi ruhiyati, urf-odatini hisobga olmagan "yangi jamiyat boshqaruvchilari A. N. Kuropatkin telegramma orqali bergan ko'rsatmasidan bexabar bo'ldilar yoki "xabar topganlari" ham buni bajarishga shoshilmadilar. Xususan, joylarda tashkil topgan ijroiya qo'mitalari va jamoat xavfsizlik qo'mitalari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirgan holda olib bormadilar. Masalan, joylarda tashkil topgan jamoat xavfsizligi qo'mitasi a'zolari faoliyati tizimli tarzda boshqaruvga ega bo'lmay, o'z faoliyatlarida vakolat doirasidan chiqib ketish, o'z boshimchalik holatlari ham ko'zga tashlanadi. Xususan, jamoat xavfsizlik qo'mitasi

a'zolari joylarda oziq-ovqat mahsulotlarini taftish qilib, ularni xatlash bilan birga, "musulmonlarning uyilariga, musulmon ayollari yashayotgan xonalarga (ichkari hovliga) bostirib kirishayotgani" qayd etilgan. Mazkur masala yuzasidan jamoat xavfsizlik qo'mitasi joylardagi boshqaruv tizimida yuritgan faoliyatiga ko'ra "o'z foydasini o'yib og'machilik qildi, shu tufayli vujudga kelgan tartiblar avvalgidan ham battar holatga olib keldi. Komitet a'zolari qishloqlardan o'z mahsulotlarini sotish uchun bozorlarga olib kelgan fuqarolarning g'allalarini xatlamodalar, keyin esa ular boshqa bozorga kelmaydilar... Ichkilikbozlik, fohishabozlik, tungi otishmalar avj olib bormoqda" deyilgan [Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Ташкент: "O'zbekiston", 2019. -Б.26.].

Turkistonni Muvaqqat hukumat tomonidan berilgan komissar lavozimida boshqarishida davom etayotgan A. N. Kuropatkin boshlangan "inqilobiy ruhiyatdan" kelib chiqib, ma'lum bir xavotirlar bilan barcha viloyat harbiy gubernatorlariga farmoyish yuborib, 1916 yildagi qo'zg'olon ishtirokchilarini sudga tortish bo'yicha yangi ish boshlamaslikni, o'z paytida boshlangan ma'muriy choralarni, mazkur qo'zg'olonda qatnashganlikda ayblanib sudlanganlarning aybini yengillashtirish bo'yicha iltimoslarni ko'rib chiqishni shart qilib qo'ydi. Aynan yana shu mart oyining boshida hamma shaharlarda mahalliy boshqarma organlari sifatida dumaga saylovlar o'tkazish, jamoat qo'mitalarini tuzish, politsiyani militsiyaga almashtirish, qo'riqlash bo'limidagi qidiruv punktlarini tugatish bo'yicha buyruqlar berdi [Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Ташкент: "O'zbekiston", 2019. -Б.24.].

A. N. Kuropatkin Turkiston komissari lavozimida faoliyat olib borar ekan, u o'z sa'y-harakati bilan muvaqqat hukumat "talablariga ham" ... ayni paytda o'lkada kundankunda o'z haq-huquqi uchun faollik bilan intilgan jamoat tashkilotlari, milliy ziyolilar sa'y-harakatiga ham "munosib javob" berishi, boshqaruvda "tarozining ikki pallasi" bilan hisoblashishi kerak edi. U Turkistondagi barcha viloyat harbiy gubernatorlariga o'z lavozimlarida qolishlarini bildirgan holda, vujudga kelgan "yangi tuzum tartiblarini g'ayrat bilan hayotga tadbiq etish" zarur deyishi bilan birga, boshqaruv tizimida egallab turgan lavozimidan kelib chiqib quyidagilarni amalga oshirish zarur deb topgan:

-boshqaruv tizimida u yoki bu lavozimda faoliyat olib borishi jarayonida aholining g'azabiga sabab bo'lib kelayotgan mansabdorlarni boshqalar bilan almashtirish kerak;

-joylardagi boshqaruv tizimiga tayinlanadigan amaldorlar aholining ishonchini qozongan va ayni paytda qat'iy tarzda ichki tartib-qoidani qo'llab-quvvatlay oladigan bo'lishi zarur [Пуговкина О. "Бывшие" и их судьбы в Узбекистане: исторический аспект (20-30-ые годы XX века). Ташкент: "Zamin nashr", 2022. -С. 8.].

Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo'mitasi raisi N. N. Shchepkinga ko'ra, o'lkada uzoq yillar general-gubernatorlik boshqaruv apparati hukmronligi tugab, "harbiy-xalq boshqaruvidagi lavozimdagilar chetlatilgandan so'ng amalda viloyatlarni boshqarish o'z-o'zidan tuzilgan ijroiya qo'mitalariga, keyinchalik oqibatda ishchi-soldat deputatlariga o'tdi" [Россия и Центральная Азия. Конец XIX-начало XX века. Сборник документов и материалов. Москва: НОВЫЙ ХРОНОГРАФ, 2017. -С. 176.].

Tahlil va natijalar. Turkistondagi boshqaruv tizimi 1917 yil Fevral inqilobidan keyin o'z ahamiyatini yo'qotdi. O'z-o'zidan o'lkadagi general-gubernatorlik boshqaruv apparati, viloyat va uezdlardagi, tegishli tarzda harbiy gubernator, boshliqlar dastlab "lavozimlarda qolgan" bo'lsalar-da, N. N. Shchepkin boshchiligidagi o'lkada boshqaruv qo'mitasi o'z faoliyatini boshlashi bilan eski boshqaruv o'z o'rnini ijroiya qo'mitalariga, ishchi-soldat deputatlariga

bo'shatib bera boshladilar. Yangi boshqaruv tizimini joriy etishda, dastlab Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo'mitasi o'z faoliyatini ikkilanish va qat'iyatsizlik bilan boshlagan bo'lsa-da, tezda bunday tartibda ish yuritish amaldagi o'zgarishlarga nomunosib ekanligini tushunib yetdi. Shunday "inqilobiy vaziyat"da Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo'mitasi o'z faoliyatini "inqilobiy huquqlar doirasida, faqat davlat tartib-qoidalariga rioya qilgan holda olib borishiga to'g'ri keldi" [Россия и Центральная Азия. Конец XIX-начало XX века. Сборник документов и материалов. Москва: НОВЫЙ ХРОНОГРАФ, 2017. -С. 176.].

Turkiston boshqaruv tizimida o'ziga xos ziddiyatli faoliyat olib borgan jamoat xavfsizligi qo'mitasi tarkibida ham yerli aholi vakillari ozchilikni tashkil qilib, o'z ta'sir doirasiga ega bo'lmagan. Masalan, 1917 yili tashkil topgan jamoat xavfsizlik qo'mitasining Toshkent va Samarqanddagi tarkibida ham, atigi ikki nafardan yerli aholi vakillaridan a'zo bo'lgan xolos [Холид Адиб. Создание Узбекистана. Нация, империя и революция в раннесоветский период. Санкт-Петербург/Бостон: Библиороссика, 2022. -С. 117-118.].

Mazkur holat, boshqaruvdagi boshboshdoqlik deyish bilan birga, ikkita jamoat xavfsizligi qo'mitasini bir-biridan alohida holda faoliyat olib borishi, inqilibdon keyin vujudga kelgan "boshqaruv tizimi"ga aholining ishonchsizligiga sabab

bo'lishi mumkin deb uqtirilgan [Farg'ona Davlat Arxivi-FVDA), 121-fond, 1-ro'yhat, 12-ish, 132-varaq.].

Xulosa va takliflar. Jamoat xavfsizligi qo'mitasi o'z faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib bormagan. Chunki jamoat xavfsizlik qo'mitalari tuzilishining o'zi tizimli ravishda amalga oshirilmagan. Xususan, joylarda boshqaruv tizimi vakolatini o'z ichiga olgan bu organ, ya'ni dastlabki paytlarda o'z-o'zidan boshqaruvning yuqori organlari tashabbusi va nazoratidan tashqarida vujudga kelgan [Холид Адиб. Создание Узбекистана. Нация, империя и революция в раннесоветский период. Санкт-Петербург/Бостон: Библиороссика, 2022. -С. 117-118.].

Jamoat xavfsizligi qo'mitasi tarkibi va uning vazifalari ham normativ-huquqiy asosida belgilanmagan. Boshqaruvning bu turidagi boshboshdoqlik shu darajaga yetganki, ayrim joylarda jamoat xavfsizlik qo'mitasi bitta emas, balki bir-biriga bo'ysinmaydigan tarzda ikkita tuzilgan. Masalan, 1917 yil 26 mayda Farg'ona viloyat komissari tomonidan Andijondagi jamoat xavfsizlik qo'mitasiga yuborilgan xatda Jalolobodda o'zboshimchalik bilan bir vaqtning o'zida ikkita jamoat xavfsizlik qo'mitasi faoliyat olib borganidan norozilik bildirib, boz ustiga ular o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirmay, aksincha, bir-biriga zid ish yuritayotganiga e'tibor bergan.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Р. Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Ташкент: "Adabiyot uchqunlari", 2016.
2. Вахобов М. Тошкент уч революция даврида. Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат Нашриёти, 1958.
3. Пуговкина О. "Бывшие" и их судьбы в Узбекистане: исторический аспект (20-30-ые годы XX века). Ташкент: "Zamin nashr", 2022.
4. Россия и Центральная Азия. Конец XIX-начало XX века. Сборник документов и материалов. Москва: НОВЫЙ ХРОНОГРАФ, 2017.
5. Усманова Д. Февраль 17-го в телеграммах от мусульманского населения//Гасырлар авазы-Эхо веков, №1/2 1997.
6. Холид Адиб. Создание Узбекистана. Нация, империя и революция в раннесоветский период. Санкт-Петербург/Бостон: Библиороссика, 2022.
7. Farg'ona Davlat Arxivi-FVDA), 121-fond, 1-ro'yhat, 12-ish, 132-varaq.
8. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Birinchi kitob. 1917-1939 yillar. Toshkent: "O'zbekiston", 2019.